

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI
ANDIJON MASHINASOZLIK INSTITUTI**

«MASHINASOZLIK» fakulteti

**«To'qimachilik sanoati mahsulotlari texnologiyasi»
kafedrası**

**BITIRUV MALAKAVIY ISH BO'YICHA
T U S H U N T I R I S H X A T I**

Bitiruv malakaviy ishning mavzusi:

**«Quvvati 2 ta pnevmomexanik yigirish mashinasi bo'lgan
yigiruv korxonasini loyihalash»**

Bitiruvchi «TSMT» guruh

talabasi:

Sh.Sodiqov

Fakultet dekani:

dots. T.Almatayev

Bitiruv malakaviy ish rahbari:

dots. A.Raximov

ass. R.Yusupova

Maslahatchilar:

k. o'q. Sh.Sulaymonov

Andijon – 2012 yil

ANDIJON MASHINASOZLIK INSTITUTI
«MASHINASOZLIK» fakulteti
«To'qimachilik sanoati mahsulotlari texnologiyasi»
kafedrası

BITIRUV MALAKAVIY ISHNI BAJARISH BO'YICHA
T O P S H I R I Q

Sodiqov Shoyadbek

1. Bitiruv malakaviy ishning mavzusi:

**«Quvvati 2 ta pnevmomexanik yigirish mashinasi bo'lgan
yigiruv korxonasini loyihalash»**

Institut bo'yicha 2011 yil "7" dekabrda 293-son buyruq bilan tasdiqlangan.

2. Bitiruv malakaviy ishni bajarish uchun ma'lumotlar

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari, Vazirlar mahkamasi qarorlari, ilmiy texnik va texnik adabiyotlar, yigirish texnologiyasi bo'yicha umumiy ma'lumotlar, faoliyatdagi korxonalar ko'rsatkichlari

3. Tushuntirish xatida keltirilgan ma'lumotlar:

a) Texnologik qism bo'yicha

Mahsulot va ipning texnik tafsiloti, xom ashyo tanlash, yigirish sistemasi tanlash, kengaytirilgan yigirish rejasini ishlab chiqish.

b) Iqtisodiy qism bo'yicha

Mashinalarning unumdorlik normalari, mahsulot ishlab chiqarish va sotish rejasini, xom ashyo balansi, mehnat va kadrlar bo'yicha reja, mahsulot tannarxi, kutilayotgan foyda va rentabellik ko'rsatkichlari.

v) Mehnat muhofazasi qismi bo'yicha

To'qimachilik sanoati ishlab chiqarish binolari va ish joylarini isitish va shamollatish

g) Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari, ilmiy texnik va texnik adabiyotlar

d) INTERNET ma'lumotlari

Zamonaviy TRUTSCHLER (Germaniya) texnologiyalari

4. Bitiruv malakaviy ishning chizmalari ro'yxati: (A3 formatda)

1) Jadval: Texnologik jarayon ketma-ketligi;

2) Jadval: Kengaytirilgan yigirish rejasi;

3) Jadval: Xom ashyo balansi;

4) Jadval: Texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlar.

5. Bitiruv malakaviy ish qismlari bo'yicha maslahatchilar:

№	Bitiruv malakaviy ishning qismlari	Boshlanish muddati	Tugallanish muddati	Imzo	Maslahatchining familiyasi
1	Kirish	06.02.2012	16.02.2012		R. Yusupova
2	Texnologik qism	17.02.2012	26.03.2012		R. Yusupova
3	Iqtisodiy qism	27.03.2012	26.04.2012		R. Yusupova
4	Mehnatni muhofaza qilish	27.04.2012	07.05.2012		Sh.Sulaymonov
5	Xulosa	10.05.2012	24.05.2012		R. Yusupova
6	INTERNET ma'lumotlari	25.05.2012	29.05.2012		R. Yusupova

6. Topshiriq berilgan sana 2011 yil 7 dekabr

7. Tugallangan bitiruv malakaviy ishni topshirish sanasi 2012 yil 20 iyun

Bitiruv malakaviy ish rahbari _____ (imzo)

Topshiriq bajarish uchun qabul qilindi _____ (imzo)

Kafedra mudiri _____ (imzo)

MUNDARIJA

MUNDARIJA:

1. Kirish	6
2. Texnologik qism.....	9
2.1. Mahsulot va ipning texnik tavsiflari	10
2.2. Xom ashyo tanlash	10
2.3. Yigirish sistemasi tanlab asoslash	22
2.4. Yigirish sistemasidagi mashinalar texnik tavsifi	24
2.5. Yigirish rejasini ishlab chiqish	31
2.6. O'timlar bo'yicha mashinalarning nazariy, amaliy va hisobiy ish unumdorligi aniqlash	36
2.7. O'timlar bo'yicha chiqindilar miqdori va ip chiqishni aniqlash	38
2.8. Soatbay vazifa hisoblash va mashinalarning soni aniqlash ...	41
2.9. Mashinalar apparatlarga ajratish, yigirish rejasiga tuzatmalar (korrektirovka) kiritish	43
3. Iqtisodiy qism	47
4. Mehnat muhofazasi qismi.....	61
5. Xulosa	68
6. Foydalanilgan adabiyotlar	71
7. INTERNET ma'lumotlari	74

KIRISH

1. Kirish

Bugungi kunda respublikamizda import o'rnini bosuvchi mahsulotlar ishlab chikarish har bir sanoat korxonasi oldida turgan dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Davlatimiz tomonidan ishlab chiqilgan maxalliyashtirish dasturi o'z vaqtida qabul qilingan qarorlardan biri bo'lib, maxalliy ishlab chiqaruvchilarga ko'plab imkoniyat va engilliklar bermoqda.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida iqtisodiyotni barqarorlashtirishni asosiy sharti bo'lib, birinchi navbatda mamlakat sanoatini rivojlantirish hisoblanadi.

Bozor munosabatlariga o'tish ishlab chiqaruvchi va iste'molchi o'rtasidagi o'zaro munosabatlar o'rnatilishi talab etadi.

Korxonalar o'rtasidagi munosabatlar mahsulot sifati xisobga olingan xolda yuz beradi, ya'ni ishlab chiqaruvchi korxonalar xaridor oldida mahsulot sifati uchun iqtisodiy javobgar hisoblanadi.

Shuning uchun har bir ishlab chiqaruvchi korxonalar raqobatbardoshligini ta'minlay olishi zarur bo'ladi.

Ishlab chiqariladigan mahsulot sifatli bo'lishiga erishish uchun unga bo'lgan talabni, sifat me'yorini aniqlash zarur.

Bugungi kunda o'sib borayotgan mamlakatimiz axolisi va axolining o'sib borayotgan ehtiyojlaridan kelib chiqqan xolda bu kabi korxonalarni tashkil etish samarali natija beradi. Buning oqibatida milliy iqtisodiyotimizga:

-sanoat korxonalarini tashkil etish va barqarorligini ta'minlash;

-ish o'rinlarini tashkil etish, axoli bandligini ta'minlash;

-ichki bozorni sifatli, arzon, milliy mahsulotlar bilan ta'minlash kabi vazifalarni bajarish ko'zda tutilgan. Bir so'z bilan aytganda xalq manfaatlariga xizmat qilish va uning farovonligini ta'minlashga o'z xissasini qo'shishga xarakat qilish oliy qadriyat hisoblanadi.

Yurtboshimiz I.A. Karimov 2011-yil yakunlari haqida fikr yuritganda:

“Ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar sifatini boshqarish tizimlarini joriy etish, mahsulotlarning xalqaro standartlarga mosligini ta'minlash masalasi barcha korxonalarda ham hal etilgan deb bo'lmaydi. Bu kamchilik ayniqsa, biz uchun o'ta

muxim ahamiyatga ega bo'lgan engil sanoat, farmasevtika, qurilish materiallari sanoati kabi iste'mol tovarlari ishlab chiqariladigan tarmoqlarga tegishlidir" deya tanqidiy fikr bildirgan edi.

“2012-yilda oldimizda turgan vazifalardan biri – mamlakatimizdagi raqobatdosh mahsulotlar ishlab chiqaradigan sanoat korxonalarini va boshqa tarmoqlarining eksport yarmarkalarini o'tkazishni kengaytirish, mahsulot sotishning zamonaviy usullaridan keng foydalanish, ishlab chiqaruvchilarning o'z mahsulotlarini taqdimotini o'tkazish bo'yicha xukumat qarorlarini qabul qilish zarur” deb ta'kidladi.

Mahsulot sifatini boshqarish esa ishlab chiqarish samaradorligini oshirishda muhim omil bo'lib ajraladi.

O'zbekistonda xom ashyo resurslarining ko'pligi, arzon ishchi kuchi va energiya resurslari mavjudligi, ishlab chiqarish jarayonlariga yangi, samarali texnologiyalarni tatbiq etish, maxalliy xom ashyo va ishlab chiqarish resurslaridan foydalanish asosida zamonaviy raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishni ko'paytirishga imkon yaratmoqda.

Andijondagi “Investtekst” Amerika – O'zbekiston qo'shma korxonasi ham 10 yildan ortiq vaqt ichida o'zini oqlay oldi, bugun esa, korxonada jaxon ayvonida o'z raqiblari bilan bimalol bellasha oladi.

Korxonada asosan trikotaj mahsulotlarining barcha xili ishlab chiqariladi.

Korxonaning yana bir katta yutug'i mahsulotlarning chet davlatlarga eksport qilishidir. Mahsulotlar Shvesiya, Kanada va Litva kabi xorijiy davlatlarga eksport qilinadi.

Davlatimiz mahsulot ishlab chiqaruvchi korxonalar tadbirkorlik huquqlarining qonuniy kafolatini ta'minlayotgan ekan, xar bir ishlab chiqaruvchi o'z navbatida davlat va jamiyat foydasiga muvofiqdir.

Bugun raqobatbardosh mahsulotlarga ichki va tashqi bozorda haridorgir bo'la oladi. Shunday ekan, iste'molchilarga taklif etilayotgan tovarning sifati yuqori va narxi nisbatan arzon bo'lishi eng ustuvor talab.

TEHNOLOGIK QISM

2. Texnologik qism

2.1. Mahsulot va ipning texnik tafsiloti

1-jadval

Ipning chiziqli zichligi teks	Ipning chiziqli zichligi bo'yicha nominal og'ishi, %	Navi	Yakka ipning solishtirma uzilish kuchi		Ipning sifat ko'rsatkichi	Chiziqli zichlik bo'yicha variatsiya koeffitsienti, %	Ipning pishitish koeffitsienti
			sN/teks	gk/teks			
1	2	3	4	5	6	7	8
27	+2,0 -2,5	I	10,4	10,6	0,9	2,2	53,7

2.2. Ip ishlab chiqarish uchun xom ashyo tanlash

1993 yildan boshlab O'zbekiston paxta tolasini klassifikatsiyalashning AQSh tizimiga mos keluvchi yangi tizimini qabul qildi (O'zRST 604-93). Jahon standartlariga mos keladigan O'zbekiston standartlash boshqarmasi ishlab chiqqan yangi O'zRST- 604-2001 standarti paxta tolasi texnik sharoitini joriy etdi. (GOST-32-79-76 o'rniga). Ushbu standart qayta ishlash uchun to'qimachilik korxonalariga etkaziladigan hamda chet elga jo'natiladigan paxta tolalariga joriy etiladi. Bu standartda asosiy ko'rsatkichlar qilib quyidagalar qabul qilindi:

1. Shtapel vazn uzunligi,mm
2. Chiziqli zichlik, mteks
3. Solishtirma uzilish kuchi, sN/teks yoki gk/teks.
4. Pishib etilganlik koeffitsienti.
5. Rangi va jinlash sifati bo'yicha tashqi ko'rinishi.
6. Nuqson va iflos aralashmalarining vazniy ulushi, %
7. Namlikning vazniy nisbati, %

Paxta tolasini tiplari

2-jadval

Ko'rsatkichlarning nomi	Paxta tolasini tipiga oid me'rlar				
	1a	1b	1v	2	3
Shtapel vazn uzunligi, mm, kamida	40,2	39,2	38,2	37,2	35,2
Chiziqli zichlik mteks, ko'pi bilan	125	135	144	150	165
Solishtirma uzilish kuchi I nav asosiy sN/teks (gk/teks)	35,3÷36,3 36,0÷37,0	34,3÷35,3 35,0÷36,0	33,3÷34,3 34,0÷35,0	31,4÷32,4 32,0÷33,0	29,4÷30,4 30,0÷31,0
	4 tip	5 tip	6 tip	7 tip	
Shtapel vazn uzunligi, mm	33,2	31,2	30,2	29,2	
Chiziqli zichlik, mteks	180	190	200	200 dan ortiq	
Solishtirma uzilish kuchi I nav asosiy sN/teks (gs/teks)	25,5÷26,5 26,0÷27,0	24,0÷25,0 24,5÷25,5	23,5÷24,5 24,0÷25,0	23,0÷24,0 23,5÷24,5	

Paxta tolasining navi bo'yicha ko'rsatkichlari

3-jadval

Tipi	Navlar bo'yicha pishib etilganlik koeffisientlari, kamida				
	Birinchi (I)	Ikkinchi (P)	Uchinchi (III)	To'rtinchi (IV)	Beshinchi (V)
1a, 16, 1,2,3	2,0	1,7	1,4	1,2	1,2 dan kam
4,5,6,7	1,8	1,6	1,4	1,2	1,2 dan kam

Paxta tolasining sinfi bo'yicha ko'rsatkichlari

4-jadval

Sanoat navi	Paxta tolasining sinflari bo'yicha nuqsonlar va iflos aralashmalarning massaviy ulushi me'yorlari, % da ko'pi bilan				
	Oliy	Yaxshi	O'rta	Oddiy	Iflos
I	2,0	2,5	3,0	4,0	5,5
II	2,5	3,5	4,5	5,5	7,0
III		4,0	5,5	1,5	10,0
IV		6,0	8,5	10,5	14,0
V			10,5	12,5	16,0

Qo'shma korxonalarda yigirilgan iplar qaysi sohada ishlatilishiga qarab quyidagicha belgilanmoqda:

Oddiy (karda) to'quv ipi CD, qayta tarash to'quv ipi SM harflari bilan belgilanmoqda va ular so'ngida esa ipning inglizcha raqamlar qo'shilmoqda. Trikotaj iplarini belgilashda CD va SM belgilari oldiga K (knitting) harfi qo'shib, KCD yoki KSM deb qisqartirilgan belgilar bilan ifodalanadi (CD 20, SM 20, KCD 20, KSM 20).

Yigirish usulidan qat'iy nazar aniq maqsadlarda yigiriladigan iplar uchun paxta tolasining tipli (namunaviy) saralanmalar tarkibi ishlab chiqilgan va tasdiqlangan.

Turli chiziqli zichlikdagi iplarni yigirish uchun tavsiya qilingan
tipli saralanmalar

5-jadval

Ipning chiziqli zichligi, teks	Tavsiya qilingan tipli saralanmalar	Izoh
1	2	3
20	5-I	
21	5-I, 5-II	
25	5-II, 5-I, 5-III	
25	5-II	
27	5-II, 6-I, 4-I	Bazaviy nav 40-50% 4-tip I nav paxta- 35-20%

Har bir namunaviy saralanma asosini paxta tolasining bitta navi tashkil etadi. Uni bazaviy nav deyilib, agar saralanma ikkita navdan iborat bo'lsa, uning ulushi 60 % dan kam bo'lmaydi. Zamonaviy yigirish korxonalarida past navli paxta tolalari va chiqindi tolalarni aralashmaga qo'shmaslik tajribasi yaxshi natijalar bermoqda.

Paxtaning O'zbekistonda rayonlashtirilgan istiqbolli seleksion nav ko'rsatkichlari

6-jadval

№	Tola tipi	Seleksiya navi	Vegitasiya davri, kun	Tola chiqishi, %	Tolaning shtapel uzunligi, mm	Tolaning uzulish kuchi, gs	Hosildorligi, s/ga	Mikroneyr
1	IV	C-6524	115-127	35,7-36,7	34-35	4,5	46,5	4,5
2	IV	Buxoro-6	120-127	35,5-36,5	35-36	4,5-4,6	40-50	4,2-4,6
3	IV	Xjrazm-127	122-125	35,5-36	33,5-34,5	4,6-4,7	45-50	4,4-4,6
4	IV	Omad	110-115	36,5	35,5	4,6	40-42	4,6
5	IV	Mehnat	118-124	36	35-36	4,6-4,8	38-45	4,4
6	IV	Buxoro-102	115-120	37-38	33-33,5	4,4-4,6	45-50	4,3-4,4
7	IV	Buxoro-8	125-130	36-38	35-36	4,4-4,9	45-50	4,3-4,5
8	IV	Denov	120-125	39-40	33,5-34,5	4,4-4,5	45-50	4,5-4,6
9	IV	c-6541	117-120	38-40	34-35	4,4	43,5	4,1-4,3
10	IV	Turon	115-118	36-38	34	4,7	38,5-39,5	4,3-4,4
11	IV	At-Termiziy	110-120	37-38	35-36	4,5	40-45	4,1-4,3
12	IV	AN-16	113-116	36-37	33-34	4,6	32,5-40	4,1-4,3
13	V	Namangan 77	123	38,5	33,7	4,7	44	4,5
14	V	An-Bayavut-2	125-127	33-34	33-34	4,6-4,8	46-50	4,4-4,6
15	V	Oqdaryo-6	115-122	35-36	34-35	4,4-4,5	35-40	4,4-4,6
16	V	c-4727	120	37-39	33,5	4,4-4,6	40	4,7
17	V	Oqqo'rg'on-2	125	36	33,5	4,6	39,7	4,4
18	V	Toshkent-6	105-110	36-36,5	34-35	4,6-4,7	39-40	4,4-4,6
19	V	Andijon-35	120-125	36-8,37,2	34-35	4,9-5,0	40-45	4,7-4,8

Aralashma xossalarini aniqlash bo'yicha loyihada qo'llanilgan tavsiyalar

1. Aralashma tarkibida eng kamida 24 ta toy paxta bo'lishi kerak.
2. Aralashmada tolalarning uzunligi farqi 1–2mm dan oshmasligi kerak.
3. Aralashmada tolalarning yo'g'onligi bir–biriga yaqin bo'lishi kerak.
4. Aralashma tarkibiga o'xshash paxta navlari tanlanishi kerak.

Tolaning xossalaridan shtapel uzunligi, chiziqli zichligi ma'lum bo'lganligi uchun paxta tolasi saralanmasi prof. A.N.Solovyev formulasi yordamida tekshirib ko'riladi.

Aralashmaning ko'rsatkichlarini aniqlashda inj. Sinising formulasi foydalanish:

1. Aralashmadagi tolaning pishiqligini aniqlash:

$$P_{ap} = \frac{P_1 \cdot \alpha_1}{100} + \frac{P_2 \cdot \alpha_2}{100} + \dots + \frac{P_n \cdot \alpha_n}{100} \quad (\text{sN})$$

2. Aralashmadagi tolaning chiziqli zichligini aniqlash:

$$T_{ap} = \frac{T_1 \cdot \alpha_1}{100} + \frac{T_2 \cdot \alpha_2}{100} + \dots + \frac{T_n \cdot \alpha_n}{100} \quad (\text{mteks})$$

3. Aralashmadagi tolaning shtapel uzunligini aniqlash:

$$L_{ap} = \frac{L_1 \cdot \alpha_1}{100} + \frac{L_2 \cdot \alpha_2}{100} + \dots + \frac{L_n \cdot \alpha_n}{100} \quad (\text{mm})$$

4. Aralashmadagi tolaning nisbiy pishiqligi aniqlash:

$$R_{ap} = \frac{R_1 \cdot \alpha_1}{100} + \frac{R_2 \cdot \alpha_2}{100} + \dots + \frac{R_n \cdot \alpha_n}{100} \quad (\text{sN/teks})$$

Bu yerda: $R_1, R_2, \dots, R_n - 1, 2, n$ sort paxta tolasini pishiqligi;
 $L_1, L_2, \dots, L_n - 1, 2, n$ sort paxta tolasini shtapel uzunligi;
 $T_1, T_2, \dots, T_n - 1, 2, n$ sort paxta tolasini chiziqli zichligi;
 $R_1, R_2, \dots, R_n - 1, 2, n$ sort paxta tolasini nisbiy uzilish kuchi;
 $\alpha_1, \alpha_2, \dots, \alpha_n - 1, 2, n$ sort paxta tolasini % ulushlari.

Tolaning yuqori o'rtacha uzunligi, shtapel uzunligi va nisbiy pishiqligi ko'rsatkichlari orasidagi bog'liqlik 8-jadvalda yozilgan.

Paxta tolasining uzunligi va pishiqligi

7-jadval

A ipi	Yuqori o'rtacha uzunlik (UHM)		Shtapel uzunlik (Staple)		Nisbiy pishiqligi (Str) I va II navlar uchun, sN/teks
	mm	dyuym	dyuym	kod	
1a	33,7-34,3	1,33-1,35	1,11/32	43	
16	32,9-33,6	1,30-1,32	1,5/16	42	
1	32,2-32,8	1,27-1,29	1,9/32	41	
2	31,4-32,1	1,24-1,26	1,1/4	40	29,4-34,3
3	30,7-31,3	1,21-1,23	1,7/32	39	(30,0-35,0)
	29,9-30,6	1,18-1,20	1,3/16	38	
4	28,9-29,8	1,14-1,17	1,5/32	37	
	28,1-28,8	1,11-1,13	1,1/8	36	
5	27,4-28,0	1,08-1,10	1,3/32	35	23,0-27,8
	26,6-27,3	1,05-1,07	1,1/16	34	
6	25,8-26,3	1,02-1,04	1,1/32	33	23,5-28,4
7	25,1-25,7	0,99-1,01	1,0	32	

Prof. A.N.Solovyev formulasi yordamida tanlangan saralanmadan yigiriladigan ipning nisbiy pishiqligi aniqlanadi. Yigirish sistemalarida pnevmomexanik yigirish mashinasi qabul qilinganligi uchun:

Prof. A.N. Solovyev formulasi qo'yidagicha ifodalanadi:

$$R_{un} = \frac{P_{ap}}{T_{ap}} \left(1 - 0,0375 \cdot H_0 - \frac{2,17}{\sqrt{\frac{T_{un}}{T_{ap}}}} \right) \left[1 - \frac{9,9}{L_{um}} \right] K \cdot \eta \left(- y \right)$$

bu erda:

R_{ip} - ipning solishtirma uzilish kuchi (ipning uzilish uzunligi) sN/teks;

R_{ar} - aralashmadagi tolaning pishiqligi, sN;

T_{ar} - aralashmadagi tolaning ch.z., teks;

N_0 - ipning solishtirma notekisligi ($N_0=3,0 \div 3,5$);

T_{ip} - ipning chiziqli zichligi, teks;

L_{ar} - tolaning shtapel uzunligi, mm;

η - mashinalar holatiga bogʻlik koeffitsient, agarda mashinalar aʼlo holatda boʻlsa - $\eta=1,1$; yaxshi holatda boʻlsa - $\eta=1,0$; yomon holatda boʻlsa - $\eta=0,8$;

K - ipning pishitish jarayoniga tegishli koeffitsient boʻlib α_a va α_{kp} amaliy va kritik pishitish koeffitsientlari farqidan topiladi;

α_T - maʼlumotnoma kitobidan ipni turiga, chiziqli zichligiga va tolaning shtapel uzunligiga qarab tanlanadi

α_{kp} - kritik pishitish koeffitsienti tavsiyaga koʻra 63,5 ga teng deb olinadi.

u - oʻrovchi tolalar ulushi (0,07)

K - ipdagi buramlar sonini hisobga oluvchi koeffitsient quyidagi formula yordamida aniqlanadi.

$$K = \varphi (\alpha_T - \alpha_{kp})$$

Olingan α_{kr} qiymatlarni maʼlumotnomadan olingan qiymat bilan solishtirilib, ularning farqi aniqlanadi va $a_T - a_{kr}$ dan chiqqan farqqa qarab K ning miqdori 9-jadvaldan aniqlanadi.

8-jadval

$\alpha_T - \alpha_{kp}$	K	$\alpha_T - \alpha_{kp}$	K	$\alpha_T - \alpha_{kp}$	K
-14	0,8	-5,6	0,94	3,4	0,98
-11	0,85	-4,7	0,96	7,3	0,95
-8,5	0,9	-3,2	0,98	11,8	0,9
-6,5	0,92	0	1	15,1	0,85

Hozirgi paytda ip sifatining asosiy koʻrsatkichi nisbiy pishiqligidan tashqari ipning Uster boʻyicha chiziqli va kvadratik notekisligi, hamda nepslar miqdori, ingichka va yoʻgʻon joylari soni bilan baholanadi. Bunday koʻrsatkichlardan ipning chiziqli notekisligini rejalashtirishda Hindistonning toʻqimachilik sanoati tadqiqoti markazi (SITRA) ayrim tavsiyalar ishlab chiqargan (10-jadval). Ulardan texnologik jarayonlarni loyihalashda foydalanish tavsiya etiladi.

9-jadval

Ipning nomeri N _e	Notekislik koeffisienti, i, %	50 % li qoplama uzunlik, mm	Tolaning pishib etilganligi	Tolaning mikroneyr qiymati
20	11,5	13,9	0,80	4,4
	10,5	15,2	0,85	4,4
	9,5	17,3	0,90	4,4
30	12,0	16,2	0,80	4D
	11,0	17,9	0,85	4,1
	10,0	19,5	0,90	4,1
40	12,5	15,2	0,80	3,8
	11,5	16,2	0,85	3,8
	10,5	17,8	0,90	3,8
50	12,0	17,3	0,80	3,8
	11,0	18,4	0,85	3,8
	10,0	21,0	0,90	3,8
60	13,0	19,6	0,85	3,8
	12,0	21,5	0,90	3,8
	11,0	22,3	0,95	3,8

Shuni ta’kidlash lozimki, birinchi nav paxta tolasining xossa ko’rsatkichlari ma’lum bo’lsa, qolgan ikkinchi va undan past tola navlarining asosiy xossalari ko’rsatkichlari prof. N.M.Belisin koeffisientlari (11-jadval)dan foydalanib, tegishli hisoblar uchun aniqlanishi mumkin.

N.M.Belisin koeffisientlari

10-jadval

Paxta tolasini navlari	Tolaning pishiqligi, sN, %	Tolaning nisbiy pishiqligi sN, %	Tolaning chiziqli zichligi, teks, %
I	100	100	100
II	89	96	93
III	78	93	84
IV	68	87	78
V	56	86	65

Aralashma xossalarini aniqlash

Loyiha topshirig'iga asosanlangan holda, yuqorida keltirilgan tavsiyalarga ko'ra 27 teks paxta ipi ishlab chiqarish uchun tipli saralanma tanlaymiz va aralashmadagi tolaning fizik mexanik xususiyatini hamda tanlangan saralanmadan yigiriladigan ipning nisbiy pishiqligini asoslaymiz.

1. Ipning me'yoriy hujjatlardagi fizik mexanik ko'rsatkichlari 1- jadvalda keltirilgan. Unga asosan topshiriqdagi ipning nisbiy pishiqligi quyidagiga teng:

$$R_{st}=12,7 \text{ sN/teks}$$

2. Berilgan vazifadagi ipni ishlab chiqarish uchun tipli saralanma tanlaymiz.

Karda sistemasida (pnevmomexanik) yigiriladigan 27,0 teks paxta ipi uchun tipli saralanma 5- jadvaldan tanlab olinadi.

11-jadval

Ipning chiziqli zichligi teks	Ipning ingliz nomeri N_E	Ipni belgilash	Tanlangan tipli saralanma	Izoh
1	2		3	4
27	22	CD 22	5-II, 6-I, 4-I	Bazaviy nav 40-50% 4-tip I nav paxta-35-20%

Loyihada tipli saralanmaning quyidagi tolaviy ulushlarini tanlab olamiz.

5-II - 40%;

6-I- 25%;

4-I- 35%;

3. Paxta seleksiya navini tanlash.

Tolalarni fizik mexanik xususiyatini o'rganib (L_{shb} , P , R , T larga ahamiyat berish kerak):

5 tipga Andijon-35, 6 tipga Navro'z, 4 tipga S-6524 paxta navini tanlab olamiz

Paxta tolasini tipi	Paxta seleksion navi	Tolani xossalari					Izoh
		Navi	Shtapel uzunligi L, mm	Chiziqli zichligi T, mtteks	Uzilishdagi pishiqligi R _p , sN	Nisbiy pishiqligi R _n , sN/teks	
5	Andijon-35	I	34-35	190	4,9	28,4	
6	Navro'z	I	33,5-34	200	4,5	22,5	
4	S-6524	I	34-35	180	4,5	25,0	

II nav paxta tolalari xossalarini Belisin koeffisienti yordamida hisoblaymiz.

II sort paxta tolasining xususiyatini aniqlaymiz:

1. tolaning uzilishiga pishiqligi

$$5\text{-tip uchun: } P_{II} = \frac{P_1 \cdot 89}{100} = \frac{4,9 \cdot 89}{100} = 4,4 \text{ cH}$$

2. tolaning chiziqli zichligi

$$5\text{-tip uchun: } T_{II} = \frac{T_1 \cdot 93}{100} = \frac{190 \cdot 93}{100} = 176,7 \approx 0,177 \text{ mekc}$$

3. tolaning shtapel uzunligini aniqlash:

$$5\text{-tip uchun: } L_{ap} = \frac{L_1 \cdot \alpha_1}{100} = \frac{35 \cdot 90}{100} = 31,7 \text{ (mm)}$$

4. tolaning nisbiy pishiqligi aniqlash:

$$5\text{-tip uchun: } R_{ap} = \frac{R_1 \cdot \alpha_1}{100} = \frac{28,4 \cdot 96}{100} = 27,3 \text{ (sN/teks)}$$

Aralashmaning ko'rsatkichlarini aniqlashda inj. Sininning formulasidan foydalanamiz:

1. Aralashmadagi tolaning pishiqligini aniqlash:

$$P_{ap} = \frac{4,3 \cdot 40 + 4,5 \cdot 25 + 4,5 \cdot 35}{100} = 4,42 \text{ (sN)}$$

2. Aralashmadagi tolaning chiziqli zichligini aniqlash:

$$T_{ap} = \frac{176,7_1 \cdot 40 + 200 \cdot 25 + 180 \cdot 35}{100} = 183,68 \text{ (mteks)}$$

3. Aralashmadagi tolaning shtapel uzunligini aniqlash:

$$L_{ap} = \frac{31,7 \cdot 40 + 33,5 \cdot 25 + 34 \cdot 35}{100} = 32,9 \text{ (mm)}$$

4. Aralashmadagi tolaning nisbiy pishiqligi aniqlash:

$$R_{ap} = \frac{27,3 \cdot 40 + 22,5 \cdot 25 + 25 \cdot 35}{100} = 25,3 \text{ (sN/teks)}$$

T=27 teks paxta ipiga tanlangan tipli saralanmani va paxta navini to'g'riligini tekshirish.

Ipning nisbiy pishiqligini prof. A.N. Solovyov formulasi yordamida aniqlaymiz:

Buning uchun dastlab kritik buram va buramga bog'liq koeffisient qiymatlarini aniqlaymiz.

α_T - 53,7 amaliy pishitish koeffisienti (tavsiya etilgan ko'rsatmalardan);

α_{kp} - kritik pishitish koeffisientini $\alpha_{kp} = 63,5$ qabul qilamiz

$$\Delta = (\alpha_a - \alpha_{kp}) = (53,7 - 63,5) = -9,8$$

9- jadvaldan $K = 0,85$

$$R_{un} = \frac{P_{ap}}{T_{ap}} \left(1 - 0,0375 \cdot H_0 - \frac{2,17}{\sqrt{\frac{T_{un}}{T_{ap}}}} \right) \left[1 - \frac{9,9}{L_{um}} \right] K \cdot \eta \left(- y \right) \cong$$

$$= \frac{4,42}{0,183} \left[1 - 0,0375 \cdot 3,0 - \frac{2,17}{\sqrt{\frac{27}{0,183}}} \right] \left[1 - \frac{9,9}{32,9} \right] 0,85 \cdot 1,1 \left(- 0,07 \right) \cong 10,42 \text{ cH / teks}$$

$$R_{cm} = 10,4 \text{ (} R_{xuc} = 10,42 \text{ sN/teks)}$$

Tanlangan tipli saralanma barcha ko'rsatkichlar bo'yicha olinishi kerak bo'lgan ipimizni texnologik ko'rsatkichlarni qondiradi.

2.3. Yigirish sistemalarini tanlash va asoslash

Ma'lum chiziqli zichlikdagi va ishlatilish sohasi aniq bo'lgan ipni ma'lum xom ashyodan yigirish uchun kerakli texnologik mashinalar va ularda bajariladigan jarayonlar majmuasiga yigirish sistemasi deb ataladi.

Yigirishda asosan karda, qayta tarash va apparat sistemalari qo'llaniladi. Bu sistemalar bir-biridan tarash va mahsulotni ingichkalash usullari bilan farqlanadi.

Yigirish sistemalari va qabul qilinadigan mashinalarni tanlashda quyidagilarni hisobga oldik:

1. Imkoni boricha olinadigan texnologik bosqichlarni qisqartirish. Texnologik bosqichlar qisqarsa, mahsulotlarni tashishga ketgan harajatlardan tashqari mashinalarning soni kamayadi, unda ishlaydigan ishchilar soni, elektr energiyasi, materiallar sarfi kamayadi.

2. Titish va tozalash jarayonlarini tashkil qilishda tolaning tabiiy fizik-mexanik sifatlari yomonlashmasligi uchun mashinalar ishchi organlarining tezliklari ilg'or korxonalar tavsiyalari asosida tanlanishi kerak.

3. Tanlab olingan mashinalar majmui olinadigan yarim mahsulotlar va ipning bir tekis bo'lishini ta'minlashi kerak, chunki yarim mahsulotlar va ip notekis bo'lsa, yigirish mashinalarida uzilish ko'p bo'lib ip sifati pasayadi va mehnat sarfi oshadi.

4. Yigirish texnologik jarayonlarini loyihalashda tarash jarayoni mashinalarini tanlashda xorijiy firmalar universal tarash mashinalarini taklif etganlari inobatga olinishi kerak.

5. Yigirish rejalarini ishlab chiqishda yigirish usulini tanlashga katta e'tibor qaratiladi.

Texnologik mashinalarni tanlash

Ip yigirish tizimi hamda yigiriladigan ipga qo'yilgan talablarga qarab, yigirish o'timlari, usullari aniqlandi. Yigirish uchun tanlangan usullarga qarab mashinalar tarkibi aniqlandi va har bir tanlangan mashinalar atroflicha asoslanib, ularning

texnik tavsiflari keltirildi. Tanlangan har bir rusumdagi mashinaga tushuncha berildi.

Piliklash mashinasi va yigirish mashinalari uchun chang so'rgich va chang puflagich moslamalarini qabul qilindi. Loyihalanayotgan korxonada chiqindi tolalarni ajratib yig'uvchi va changsizlantiruvchi sistema bilan ta'minlanishi amalga oshirildi.

Loyihada kardali pnevmomexanik yigirish tizimi uchun TRUTSCHLER firmasining quyidagi texnologik ketma-ketlikni tanlab olamiz.

13-jadval

Jarayonda dastgohlar ketma-ketligi	
Dastgoh nomi	Dastgoh rusumi
Avtomatik toytitkich	Blendomat BO-A
Ko'p funktsiyali separator	SP-MF
6 bunkerli aralashtiruvchi mashina	MX-1-6
Agregatlashgan tozalagich	Clenomat CL-C-4
Begona jismlardan tozalash mashinasi	Securomat SP-F
Tola taqsimlagich	Directfeed
Tarash mashinasi	TC-03
Pitalash mashinasi I-o'tim	TD-03
Pitalash II-o'tim	TD-03
Pnevmomexanik yigirish mashinasi	BD-330

2.4. Yigirish tizimida tanlangan mashinalarning texnik tavsiflari

1. Avtomatik toytitgich - Blendomat BO-A

Blendomat BO-A avtomatik toytitgichda bir, ikki yoki to'rt qator qilib joylashtirilgan 180 tagacha har xil zichlikdagi toy paxtalarga ishlov beriladi.

Konstruktiv xususiyatlari va afzalliklari:

- assortimenta bo'yicha uch xil stavkadagi toylarni bir paytda yoki navbati bilan titib oladi va aralashtiradi.
- ishlab chiqarishga ta'sir qilmay va xom ashyoni isrof qilmay yangi assortimentga o'tishi mumkin.
- avtomatik toy titkich uchta titish-tozalash agregatiga xizmat ko'rsata oladi.
- unumdorligi yuqori va boshqarish oson va sodda.

Texnik tavsifi.

SHtapel uzunligi 60 mm gacha bo'lgan tabiiy va kimyoviy tolalarga ishlov berishi mumkin.

Unumdorligi, kg/s.	- 1200-1600
Ajralgan bo'lakchalarning o'rtacha massasi, mg	- 20-50
Stavka uzunligi: mm standart holatda	- 18185
maksimal holatda	- 45410
Mashina o'lchamlari: mm	
Uzunligi: - minimal	- 10670
- maksimal	- 50270
- standart	- 23045
Eni	- 5164
Elektrodrigatel quvvati, kvv	- 4 - 6

2. Ko'p funksiyali ajratkich (separator) SP-MF

Ko'p funksiyali ajratkich (separator) SP-MF - tuzilishi jihatidan juda ixcham, paxta tolasidagi og'ir jismlar, metall bo'lakchalarini, begona jismlarni va mayda chiqindilardan tozalash uchun hamda agregat tarkibidagi boshqa mashinalardagi nosozliklarning oldini olish uchun xizmat qiladi.

- Elektr quvvati va er maydonini kam talab qiladi.

- Mashinaga xizmat ko'rsatish va ishlash osonligi bilan ajralib turadi.

Texnik tavsifi

Unumdorligi, kg/s	- 1500
Elektroenergiya quvvati, kVt	- 9,0
Mashina o'lchamlari: mm	
uzunligi	- 4485
eni	- 1664
balandligi	- 4140

3. Aralashtiruvchi mashina MX-I-6

Konstruktiv xususiyatlari va afzalliklari: olti xil komponentlarni bir me'yorda aralashtirish. Katta hajmdagi tolali mahsulotlarni avtomatik ravishda ta'minlash zonasiga uzatish. Tolali chiqindilarni avtomatik ravishda ajratish. Tolali bo'lakchalarni bir xil me'yorda aralashtirish va keyingi mashinaga bir tekis uzatish.

Texnik tavsifi.

Unumdorligi, kg/s	- 1500
Aralashtirish sig'imi, kg	- 400
Elektrodvigatel quvvati, kvv	- 6,0
Bunkerlar soni	- 6
Bunker eni, mm	- 1600
Mashina o'lchamlari: mm	
Uzunligi	- 4633
Eni	- 2264

4. Aralashtirish mashinasi bilan agregatlashtirilgan Cleinomat

CL-C 4 tozalagichi

Cleinomat CL-C4 tozalash mashinasi, tolali bo'lakchalarni yaxshi titilish va tozalanishi uchun agregat tarkibiga kiruvchi oldingi mashinalardan kelayotgan tolalar qatlamini nazorat qilish yo'li bilan ta'minlab turadi.

Konstruktiv xususiyatlari va afzalliklari:

To'rt barabanli tozalagich yuqori tozalash darajasi bilan boshqa tozalagichlardan farqlanadi. Paxta tolasini tozalash imkoniyatiga ega. Mashinada

beshta tozalash qurilmasi mavjud. Paxta tolasini titish hamda tozalash dag'al va mayin usullarda amalga oshiriladi.

Texnik tavsifi	
Uzunligi 60 mm gacha bo'lgan tabiiy va kimyoviy tolalarga mo'ljallangan.	
Unumdorligi, kg/s.	- 800
Elektrodvigatel quvvati, kVt	- 9,1-11
Mashina o'lchamlari: mm	
uzunligi	- 2995
eni	- 2664

5. Aerodinamik tozalagich Securomat SP-F

Mashina boshqa rangdagi begona tolalar va jismlardan tozalash imkoniyatiga ega bo'lib, changsizlantiruvchi moslama mavjud bo'lganligi uchun Dustex SP-DX mashinasini o'rnatish shart emas. Mashinaning yuqori qismida changsizlantiruvchi eni 1600 mm bo'lgan tur joylashtirilgan. Mashinaning quyi qismida ignali garnitura bilan qoplangan tituvchi val mavjud bo'lib kelayotgan paxta tolasini qatlamlarini mayda bo'lakchalarga ajratish va begona jismlardan tozalash vazifasini bajaradi.

Texnik tavsifi	
Unumdorligi, kg/s	- 800
Elektrodvigatel quvvati, kVt	- 4,2
Mashina o'lchamlari: mm	
Uzunligi	- 2245
Eni	- 2000
Balandligi	- 3980

6. Tarash mashinasiga tola taqsimlash sistemasi Directfeed

Konstruktiv xususiyatlari va afzalliklari: Bir vaqtning o'zida 1-3 assortimentni qayta ishlash imkoniyatiga ega. Kerakli assortimentni olish uchun tarash mashinalarini universal holda ta'minlaydi. Bunkerning hajmi bilan tarash mashinasi uzatuvchi valik bilan o'zaro bog'langan. Tituvchi valik tolaning mayin titib ikkinchi bunkerga uzatib turadi. Bunkerning 2 tomoniga o'rnatilgan to'r yordamida chang va kalta tolalardan tozalaydi. Bunkerning eni 1200 mm teng.

7. Tarash mashinalari

Shlyapkali tarash mashinasining yangi avlodi DK-903, TS-03, TS-06, TS-07 (TRUTZSCHLER firmasi) rusumdagilari bir qator xususiyatlarga ega. Bular - ta'minlash bunkerining ko'p qismliligi, ta'minlash stolchasining silindr ustida joylashib, unga ta'minlash silindrining pastdan yuqoriga bosilib turishi, qabul barabanining uchtaligi va boshqa bir qator konstruktiv hamda texnologik xususiyatlaridir. Eng asosiysi yuqori unumdorlikni hamda mahsulotning sifat ko'rsatkichlarini talab darajasida ta'minlaydi.

TS-03 markali tarash mashinasida ayrim maxsus moslamalar - bunkerli ta'minlagich Directfeed, shuningdek, Sensofeed, Webspeed, PMS prezision (aniq) boshqaruv tarmog'i, Wastecontrol chiqindilar analizatori, Nepcontrol (tugunak nazoratchisi) moslamasi kabi qurilmalarini qo'llanilganligi uning raqobatbardoshligini ta'minlaydi.

Tarash mashinasi TS-03

Konstruktiv xususiyatlari va afzalliklari: YUqori unumdorlikka ega. Tarash maydoni 20% oshirilgan. Chiqayotgan piltaning notekisligini va taram sifatini nazorat qiluvchi moslama joylashtirilgan. Asosiy baraban bilan shlyapkalar orasidagi masofani avtomatik ravishda o'zgartirish imkoniyatiga ega. 1 gr taramdagi nuqsonlar sonini aniqlovchi moslamasi mavjud. Mashinadagi texnik ko'rsatkichlar bevosita kompyuter bilan bog'langan.

Texnik tavsifi.

Unumdorligi, kg/s	- 180 gacha
Tos diametri, mm	- 600-1000
Tos balandligi, mm	- 900-1200
Bosh baraban aylanishi, min ⁻¹	- 600
Elektrodrigatel quvvati, kVt	- 12-14 kVt
Umumiy shlyapkalar soni	- 84 ta
Ishchi shlyapkalar soni	- 30 ta
Mashina o'lchamlari:	
uzunligi, mm	
tos diametri 600 mm bo'lganda	- 7120
tos diametri 1000 mm bo'lganda	- 8013
eni, mm	
tos diametri 600 mm bo'lganda	- 1700

8. Pitalash mashinalari

Pitalash mashinalarining asosiy ishchi organi - cho'zish asboblariga keyingi yillarda keskin o'zgartirishlar kiritildi.

Ilgari turli uzunlikdagi paxta va kimyoviy tolalarni cho'zishda har xil sistemalardagi cho'zish asboblari ishlatilgan bo'lsa, xozirgi kunda universal cho'zish asbobi samarali ishlatilmoqda. Yangi avlod pitalash mashinalarida 800-1000 m/min pilta chiqarish tezligiga erishilgan.

Zamonaviy pitalash mashinalarida takomillashtirilgan konstruksiyali 4/3 va 5/4 turidagi cho'zish asboblari qo'llanilmoqda. Ularda uchta, to'rtta silindr ustida tegishli 4 ta va 5 ta valiklar yuk bilan bosilib turadi. Ularning umumiyli shundaki, cho'zish chizig'ida egri maydonlar qo'llanilgan va oldingi silindrda ikkita ustki valik joylashtirilganligidan tashqari chiqayotgan yupqa mahsulot pastga bevosita to'plovchi lotokli zichlagichga kiritiladi. Ustki valiklarga pnevmatik usulda yuk beriladi. Qurilmada havo bosimi doimiyli ta'minlanganligi bois yuk miqdori o'zgarmas bo'ladi. Shuning uchun bu usul so'ngi paytda keng ko'lamda tarqalib deyarli barcha zamonaviy pitalash mashinalarida qo'llanilmoqda.

Ustki valiklari pnevmatik yuklanadigan mashina to'xtaganda yuk avtomatik tarzda olinadi. Har bir valikdagi yuk alohida nazorat qilinib rostlanadi. Cho'zish asbobining silindrlari parallel yo'nalishda juda aniq qo'yilgan. Cho'zuvchi juftliklar qisqichlari orasidagi masofa shkala bo'yicha aniqlanadi va shablon talab qilinmaydi.

Tezyurar pitalash mashinalari raqamli boshqariladigan aloxida servouzatma bilan jihozlangan. Oddiy valikli ulchagichdan farqli ravishda TRUTZSCHLER firmasining voronkali o'lchagichi pilta harakati nazoratini juda aniq amalga oshiradi.

TD-02, TD-03 rusumli pitalash mashinalarida muqobil rostlashni aniqlash juda oddiy. Maxsus dastur bilan ta'minlanishi natijasida bu jarayonni qisman

avtomatlashtirish mumkin. Bu holda laboratoriyada piltani tekshirib, sinab ko'rish talab qilinmaydi.

Zamonaviy pitalash mashinalarida foydalanish koeffisientining yuqoriligi va tez o'zgarar olishi mashinaning samaradorligini oshirib, foydalanish qamrovini kengaytiradi. Birinchi o'tim odatda, rostlagichsiz, ikkinchi o'tim mashinalari esa rostlagichli qilib ishlab chiqarilmoqda. Mashinadagi hamma uzatmalar cho'zilgan piltani 1000 m/min gacha chiqarish tezligiga mo'ljallangan. Energiyani kam sarflanganligi uchun pitalash mashinasi tejamkordir. Reduktordan voz kechib bevosita reduktorsiz uzatmalardan foydalanish tufayli pitalash mashinasida elektr energiyasini iste'mol qilish keskin pasaydi. Bir kg pilta tayyorlashda energiya sarfi 0,025 dan 0,035 kvt/soatni tashkil etadi. Pnevмомexanik ip yigirishda bitta o'tim rostlagichli pitalash mashinasini ishlatish tavsiyalari ham mavjud.

Pitalash mashinasi TD-03

Konstruktiv xususiyatlari va afzalliklari: Pitalash mashinasi 6 ta yoki 8 ta pitalarni birlashtirib kerakli chiziqli zichlikdagi pilta ishlab chiqarish uchun xizmat qiladi.

Mashina changli havoni so'rib olish va pilta sifat ko'rsatkichlarini hamda chiziqli zichligini aniqlovchi moslamalar bilan jihozlangan bo'lib, kompyuter yordamida boshqariladi. Chiqayotgan mahsulotni dumaloq hamda to'g'ri burchakli toslarga taxlash imkoniyatiga ega.

Texnik tavsifi.

Ishlatiladigan tola uzunligi, mm gacha	- 60
Piltaning chiziqli zichligi, kteks	- 1,5-7,0
Chiqaruvchi ishchi organlar soni	- 1
Chiqaruvchi silindr tezligi, m/min	- 1000
Umumiy cho'zish miqdori, gacha	- 4 - 11
Cho'zish asbobi turi	- 4 x 3
Elektrodvigatel quvvati, kVt	- 10,5 kVt
Tos o'lchamlari, mm	
-kirishda	-400-1000
-chiqishda	-400-1000
Balandligi, mm	- 900-1500

Mashina o'lchamlari, mm

14-jadval

Tos diametri, mm (kirishda)	Tos diametri, mm (chiqishda)	Uzunligi, mm	Eni, mm
1000	1000	9600	2750
1000	450	10680	2550
600	600	9330	2550
1000	400	10610	2550

9. Pnevмомеханик yigirish mashinalari

Yigirish tezligini va unumdorligini oshirishning istiqboli faqat pishitish va o'rash jarayonlarini ajratib, aloxida ishchi organlar orqali amalga oshirish, ip shakllanishi jarayonining taraqqiyotini asosiy sharti bo'lib hisoblanadi. Bu borada ip yigirishda pnevmomexanik usul keng tarqalgan bo'lib, mehnat va mashina unumdorligi 2-3 marta oshirilgan va pakovka massasi 4-5 kilogrammga etkazilganligi bilan ajralib turadi.

Tolalarning siklik kushilishi ipning chiziqli zichligi va pishiqligi bo'yicha notekisligini 30-40 %ga kamaytirib, pnevmomexanik ipning iste'mol xossalarini oshiradi.

Pnevмомеханик yigirish mashinalari ishlatilishi va xom ashyo turiga qarab uch xil - kamerali, rotorli va kondensorli pnevmomexanik yigirish mashinalari bo'ladi. Kamerali yigirish mashinalari keng ko'lamli iplarni tabiiy va kimyoviy tolalardan tayyorlashda qo'llaniladi. Rotorli yigirish mashinalari esa past navli paxta tolasi va chiqindi tolalardan katta chiziqli zichlikdagi iplar ishlab chiqarishda qo'llanilmoqda.

Aksariyat xolatlarda chiziqli zichligi o'rtacha ($T=18,5-50$ teksgacha), ayrim hollarda katta chiziqli zichlikdagi ($T=250$ teksgacha) iplar turlicha tezliklarda yigirilmoqda. RU-14, R-20, R-40, VT 905, VT-923, VT-924 rusumli pnevmomexanik yigirish mashinalarida yigirish kamerasing aylanish chastotasi 50000 dan 150000 min^{-1} gacha, BD-330, BD-340, BD-350, BD-380

mashinalarining yigirish kameralari aylanish chastotasi esa 31000 dan 120000 min⁻¹ gachadir.

Pnevmomexanik yigirish mashinalarining texnik tavsiflari

15 -jadval

T/r	Texnik ko'rsatkichlari	BD-200ES	BD-224ES	VT 905	BD-330	BD-340
1	Ishlatiladigan tola uzunligi mm	60,0 gacha	60,0 gacha	60,0 gacha	15-60,0	60,0
2.	Ta'minlanadigan mahsulotning chiziqli zichligi, kteks	5-2,2	5-2,2	7-3	7-3	5-2,5
3.	Ipning chiziqli zichligi, teks	14,5-150	17-150	14,5-250	10-250	20-150
4.	Diskretlovchi barabanchaning aylanish tezligi, min ⁻¹	5000-9000	5000-9000	5000-10000	5000-10000	5000-10000
